# 2019-yil 1-dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)




**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar 43600 tani tashkil etadi**

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar 38283 ta bo'lib, 2019 yil yanvar-noyabr oylarida 9188 ta yangi tashkil etildi**

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlari soni 32384 ta bo'lib, 2019 yil yanvar-noyabr oylarida 8854 ta yangi tashkil etildi**

**Xorijiy sarmoya ishtirokidagi 1121 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda**

**O'tgan yilga nisbatan 499 ta korxona va tashkilotlar tugatilishi ko'payganligi kuzatilgan**

| 43600 | 38283 | 9188 |
|---|---|---|
| Ro'yxatdan o'tgan | Faoliyat ko'rsatayotgan | Yangi tashkil etilganlar |

# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**2019-yil 1-dekabr holatiga**

## 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarni tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tahlili. birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

**2019 yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar**

| | |
|---|---|
| JAMI | 9188 |
| Oilaviy korxonalar | 1184 |
| Mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar | 6375 |
| Xususiy korxonalar | 1250 |
| Boshqalar | 379 |



2019-yilning yanvar-noyabr oylarida 9188 ta yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarni asosiy qismi mas‘uliyati cheklangan jamiyat va xususiy korxonalarga to’g’ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa oilaviy korxona hamda boshqa tashkiliy-huquqiy shaklarga to’g'ri keladi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




2019-yilning 1-dekabr holatiga 43,6 mingta korxonalar va tashkilotlar ro’yxatdan o’tgan bo’lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,5 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha jamiga nisbatan 25,1 % - savdo, 19,6 % - sanoat, 11,0 % - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 8,0 % - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 7,9 % - qurilish, 3,4 % - tashish va saqlash, 1,5 % - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,4 % - axborot va aloqa hamda 22,0 % - boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha (10959 ta) savdo, (8560 ta) sanoat, (4807 ta) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, (3467 ta) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, (3448 ta) qurilish, (1499 ta) tashish va saqlash, (666 ta) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (597 ta) axborot va aloqa hamda (9597 ta) boshqa faoliyat turlariga to`g`ri kelmoqda.



# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko’rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 38,3 mingtani tashkil etib, o’tgan yilning shu davriga solishtirilganda 7,6 mingta (24,9 %) ga o’sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko’p Zangiota (4206 ta), Qibray (3530 ta) va Toshkent (2673 ta) tumanlari hamda Angren (2314 ta), Chirchiq (2173 ta) shaharlar hissasiga to’g'ri keladi. Aksincha Ohangaron (936 ta), Oqqo'rg'on (995 ta), Piskent (1033 ta), Bekobod (1083 ta) va Chinoz (1089 ta) tumanlari hamda Ohangaron (903 ta) va Nurafshon (1030 ta) shaharlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

## 2019-yil yanvar-noyabr oylarida 9188 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo’lib, bu ko’rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 4973 taga ko’pdir.



2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

| Faoliyat turi | Ulushi |
|---|---|
| Savdo | 36,0 % |
| Sanoat | 20,6 % |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 10,4 % |
| Qurilish | 9,1 % |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 8,6 % |
| Tashish va saqlash | 3,4 % |
| Axborot va aloqa | 1,3 % |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 1,1% |
| Boshqa turlari | 9,5 % |

Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko’p savdo (3311 ta), sanoat (1896 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (952 ta) va qurilish (836 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish (101 ta), axborot va aloqa (115 ta) hamda tashish va saqlash (312 ta) faoliyat turlari hissasiga to’g’ri kelgan.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| Faoliyat turi | Soni |
|---|---|
| Savdo | 3311 |
| Sanoat | 1896 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 952 |
| Qurilish | 836 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 788 |
| Tashish va saqlash | 312 |
| Axborot va aloqa | 115 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 101 |
| Boshqa turlari | 877 |

# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Zangiota (1309 ta), Qibray (725 ta), Toshkent (655 ta), O'rtachirchiq (550 ta), Yangiyo'l (534 ta) tumanlari va Angren (545 ta) shahri hissasiga to’gri keladi. Aksincha, Piskent (201 ta), Ohangaron (215 ta), Bekobod (228 ta) tumanlari hamda Ohangaron (191 ta) shaharlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko’rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2017-2019-yillarning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni**




Korxonalar soning o'sishi, birlikda

# TIJORAT KORXONALARI

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko’rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 32,7 mingtani tashkil qildi

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxona




Oilaviy korxona




Unitar korxona




Aksiyadorlik jamiyati




Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 1121 tani tashkil etdi. O’tgan yilning shu davriga nisbatan 296 taga yoki 35,9 % ga o’sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Qozog’iston Respublikasi va Janubiy Koreya Respublikasi hissalariga to’g’ri keladi.




Faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy ulushi Xitoy Xalq Respublikasiga - 26,0 %, Rossiya Federatsiyasiga - 14,7 %, Turkiya Respublikasiga - 11,7 %, Qozog’iston Respublikasiga - 9,4 % va Janubiy Koreya Respublikasiga - 7,0 % to’g’ri keladi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni soni shu davrining oxirgi besh yilligiga solishtirilganda 2,2 barobarga ko'payib, ularni soni 1121 taga etdi.

**2019-yil 1-dekabr holatiga**



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarning 594 tasi qo’shma, 527 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to’g'ri keladi.




## Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Zangiota 138 ta (jamidagi ulushi 12,3 %), Qibray 117 ta (10,4 %), Yuqorichirchiq tumanlarida 84 tani (7,5 %) va Angren 87 ta (7,8 %) shaharida 76 ta (6,8 %) tashkil etilgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'ka va Bekobod 7 tadan (0,6 %), Oqqo'rg'on 9 ta (0,8 %), Piskent 14 ta (1,4 %), Chinoz tumanlarida 17 tani (1,5 %) hamda Bekabod shahrida 18 ta (1,6 %) tashkil etgan.

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Ko’rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to’g’ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa tashish va saqlash, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish hamda axborot va aloqaga to’g'ri keladi.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar






2019-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 288 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 62 taga ko'paygan.

Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 93 ta, Rossiya Federatsiyasi - 43 ta, Qozog'iston Respublikasi - 37 ta, Turkiya Respublikasi-32 ta va Koreya Respublikasi – 17 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

**150 ta**
Sanoat

**57 ta**
Savdo

**26 ta**
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

**20 ta**
Qurilish

**9 ta**
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

**3 ta**
Tashish va saqlash

**2 ta**
Axborot va aloqa

**2 ta**
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

**19 ta**
Boshqa turlar

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha koʻradigan boʻlsak, asosan sanoatda 150 ta, savdoda 57 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 26 ta hamda 20 ta qurilish va 35 ta boshqa faoliyat turlari hissasiga to’g’ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining yillar kesimida o'sish dinamikasi, birlikda



# Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarni yillar kesimida soni, birlikda




2019-yil 1-dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 32,4 mingtani tashkil etgan. Bu ko’rsatkich o’tgan yilga nisbatan 29,3 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 8,9 mingdan ziyod kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 91,4 foizga ko’paygan.

# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi 2019 yil 1 dekabr holatiga

| • Eng katta ulushi | | • Eng kichik ulushi | |
|---|---|---|---|
| Zangiota tumani | **11,6 %** | Bekobod tumani | **2,7 %** |
| Qibray tumani | **9,3 %** | Chinoz tumani | **2,6 %** |
| Toshkent tumani | **7,4 %** | Piskent tumani | **2,6 %** |
| Angren shahri | **6,0 %** | Nurafshon shahri | **2,6 %** |
| O'rtachirchiq tumani | **5,7 %** | Oqqo'rg'on tumani | **2,5 %** |
| Chirchiq shahri | **5,6 %** | Ohangaron shahri | **2,4 %** |
| Yangiyo'l tumani | **5,6 %** | Ohangaron tumani | **2,3 %** |

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 32,4 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 9,4 mingta (29,0 %) – savdo, 7,4 mingta (23,0 %) - sanoat, 4,1 mingta (12,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3,0 mingta (9,1 %) - qurilish, 2,9 mingta (9,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1,3 mingta (4,0 %) - tashish va saqlash, 0,5 mingta (1,6 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,4 mingta (1,3 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 3,3 mingtasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi**

**10,7**



**Sanoat**

**21,4**



**Qurilish**

**9,4**



**Savdo**

**37,4**



**Tashish va saqlash**

**3,5**



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

**8,9**



**Axborot va aloqa**

**1,0**



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish**

**1,1**



**Boshqa turlari**

**6,6**

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'p savdo 3309 ta, sanoat 1892 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 946 ta va qurilish 836 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada 92 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda 100 ta hamda tashish va saqlashda 312 ta tashkil etilgan.

# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko’p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Zangiota (1287 ta), Qibray (698 ta), Toshkent (642 ta), O'rtachirchiq (534 ta), Yangiyo'l (512 ta) tumanlari va Angren (527 ta) shahri hissasiga to’g'ri keladi. Eng kam Piskent (180 ta), Ohangaron (207 ta) va Bekobod (222 ta) tumanlari hamda Ohangaron (182 ta) va Nurafshon (248 ta) shaharlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Faoliyat ko’rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 34,8 % yoki 944 tasi sanoat, 25,2 % yoki 683 tasi savdo, 20,7 % yoki 562 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11,7 % yoki 319 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 0,8 % yoki 22 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 18 tasi qurilish, 0,5 % yoki 13 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 0,4 % yoki 10 tasi axborot va aloqa hamda 5,3 % yoki 144 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda







## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %





Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi boshlig'i
Xasan Igamberdiyev
Tel.:71-230-86-84